

ETYUDLAR-AKTYOR IJODINING AJRALMAS BO`LAGI

Qazaqbaeva Ramuza Perdebaevna

O`zDSMI Nukus filiali "Rejissura san'ati" kafedrasi o'qituvchisi

Bozorboyeva Aziza Baxtiyor qizi

O`zDSMI Nukus filiali "Rejissura san'ati" kafedrasi

"Estrada va ommaviy tomoshalar rejissorligi" 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Etyud, uning yaratilishi, turlari va ijodkor faoliyatidagi mohiyati.*

Kalit so`zlar: *etyud, aktyor, rejissor, tushuncha, dramaturgiya, san`at, harakat, faoliyat, fabula, partnyor, oliy maqsad, ijod, tasavvur, fantaziya, asar, ssenariy, obraz, rol, yetakchi xatti-harakat.*

ETUDES ARE AN INTEGRAL PART OF AN ACTOR`S CREATION

Annotation: *etude, its creation, types and essence in the work of the artist.*

Key words: *etude, actor, director, concept, dramaturgy, art, movement, activity, fable, partner, higher goal, creations, imagination, fantasy, work, script, image, role, leading behavior.*

Etyud-hayotdan olingan bir voqea bo`lib, diologlarsiz, xatti-harakatda ijro etiladi. Etyudlotincha so`zdan olingan bo`lib "mashq", "mashg`ulot" kabi ma`nolarni bildirib, teatr pedagogikasida rejissorlik mahorati va aktyorlik texnikasini rivojlantirish va takomillashtirish uchun xizmat qiluvchi janrdir. Hayotiy haqiqat asosida harakatga asoslangan, kam so`zli, dramaturgiya komponentlarini mujassam etgan kichik ko`rinish.

Etyud so`zi juda keng ma`noda qo`llaniladi. Masalan:

Tasviriy san`atda: biror narsaning o`ziga qarab ishlangan dastlabki, xomaki rayem, skulptura, chizma;

Musiqqa san`atida: mashq uchun yoki mustaqil ijod tariqasida yozilgan, sozandaning mahoratini oshirishga yordam beradigan san`at asari;

Matematikada: biror masalaga bag`ishlangan, unchalik katta bo`lmagan ilmiy-tanqidiy ruhdagi asar turi;

Shaxmat va shashka o`yinida: kam sonli figuralar bilan yutish yoki durang qilish yechimini topish uchun beriladigan pozitsiya, masala.¹

Barcha sohalarida etyudning vazifasi bir xil. Mashq qilish, o`z mahoratini oshirish, o`z ustida ishlash kabi faoliyatdagi asosiy funksiyalarni bajaradi.

Teatr san`atida etyudlar bir necha turga bo`linadi:

- Yakka (bir kishilik) etyudlar;
- Juft etyudlar;
- Jamoaviy (ommaviy) etyudlar;
- Hayvonot olami kuzatuvlari asosidagi etyudlar;

¹ uz.m.wiktionary.org

- Badiiy asarlar, hikoyalar, drabllar, qissalar, romanlar, ertaklar asosidagi etyudlar;
- Rassomlar chizmalari, suratlari asosidagi etyudlar.

Har bir etyud ustida ishlayotganda talabalar, aktyorlar, rejissorlar jarayonga jiddiy yondashishi va sinchkov bo`lishi darkor. Buning bir qancha sabablari bor:

Birinchidan-etyudlarni o`lab topishning o`zi katta mahorat talab etadigan vazifadir;

Ikkinchidan-aktyorning vazifasi sahnada bo`layotgan voqealik yoki boshqacha qilib aytganda dramaturg tomonidan berilgan matni tomoshabinga yetkazishdan iborat bo`lib qolmasligi kerak. U sahnadan turib so`zni quruq emas, ma`no va mazmun jihatidan turli xatti-harakatlar orqali voqealichni ifodalaymiz;

Uchinchidan-aktyorlik mahoratini o`zlashtirishning eng zo`r usuli etyudlar ustida ishlashdir.

Etyudlar ustida ishlashda talabalar oldida yangi murakkab vazifalar paydo bo`ladi. Bu jarayonda ijodning barcha elementlarigina emas balki soha bo`yicha olingan ilk bilimlar mustahkamlanib keying bosqich uchun asos bo`ladi.

Etyud o`z ichiga dramaturgiyaning hamma komponentlarini oladi. Dramaturgiya sxemasi 5 qism va 3 asosiy pallaga bo`linadi:

1-ekspozitsiya

2-uyg`onadigan palla(tugun)

3-xatti-harakatdagi keskinlikning oshishi

4-kulminatsion palla

5-fojeaviy palla(perepetiya)

6-xatti-harakatlarning pasayib borishi(tanazzulga yuz tutishi)

7-eng so`nggi keskinlashish pallasi

8-fojea ro`y berishi(karastrofa) (yechim).

Etyud deyarli so`zsiz harakat asosiga quriladi, ammo ba`zi hollarda bitta-ikkita so`zlarni ishlatish mumkin. Masalan; allo, ha, yo`q, salom, xayr kabi. So`zlarning shunday qo`llash kerakki diologga aylanmasin. Etyud-sahna san`atini endigina o`rganayotgan ijrochi uchun eng muhim bosqichlardan hisoblanadi. Aktyorlik sohasini egallashni o`ziga maqsad qilib qo`ygan har qanday ijrochi ijod yo`liga etyudlar orqali kirib keladi. Etyudlar aktyorlik mahoratini o`rganish va o`zlashtirishning asosi hisoblanib, aktyorni tarbiyalovchi vositalardan biridir.

Etyud ustida ishlash talabalarning ijodiy tasavvurlari va fantaziyaalarini kuchaytiradi, mahorat texnikasini rivojlantiradi, partnyorni his qilish, tinglash va sezishni o`rgatadi.

Sahnadagi tasavvur-aktyor hayotida bo`lgan, bo`layotgan, bo`lishi mumkin bo`lgan real xodisalar asosida yuzaga keladi. Buning uchun aktyor o`z hayotida eshitgan, o`qigan, ko`rgan hayotiy eslamalarini ishga soladi.

Ijodiy fantaziya-aktyor hayotida bo`lmagan, yuz bermagan, u bilmagan, ko`rmagan, lekin ertaklardagi, har xil hayoliy hikoyalarda yuz bergan xodislarni o`z ongida shakllantirishdan iborat.

Fantaziya tasavvur singari san`at korga nihoyatda zarurdir.²

Aktyorning sahnadagi faoliyatining asosini xatti-harakat tashkil etadi. Uning tasavvuri-harakat qilish, demakdir. Lekin bu jismoniy emas, xayoliy harakatdir. U o`zi yaratayotgan

² Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. Toshkent. Bilim. 2005-yil. B.66.

timsol hayotidan biron bir hodisani tasavvur qilar ekan, shu bilan birga, boshqa odamni emas, shu qiyofada o`zini tasavvur qiladi.

Aktyorning sahnaviy faoliyati o`z roliha sehrli “agarda” va “berilgan shart-sharoitda” so`zlarini kiritishdan va ularga javob qidirishdan boshlanadi. Bu sehrli so`zlar o`z o`rnida aktyorni kundalik muhitdan tasavvur olamiga olib kiradigan vositadir.³ Endi etyud yaratishning bosqichlarini o`rganamiz. Ushbu jarayon asosiy 3 ta bosqichdan iborat:

- Etyud dramaturgiyasini yaratish
- Etyudni sahnalashtirish
- Etyud ustida ishlash

1-bosqichda talabalar, aktyorlar va rejissorlar etyudning ssenariysini yozishlari lozim. Ssenariyda berilgan shart-sharoit aniq ko`rsatilishi lozim.

-harakat qaysi vaqtda bo`lib o`tishi;

-harakat qayerda bo`lib o`tishi;

-kim ishtirok etishi. Har bir ishtirokchiga qisqacha tasnif beriladi. Uning yoshi, kasbi va xarakteri;

-nima bo`lib o`tadi. Ya`ni etyudning qisqacha harakat mazmuni uning fabulasi, syujeti, maqsadi va janri ko`rsatilib, bu harakat nima uchun amalga oshirilayotgani hal etiladi.

Etyudlar ijrochilar sonidan qat`iy nazar, hoh u yakka etyud, hoh ommaviy etyud bo`lsin albatta rejissor tomondan tahlil etiladi. Etyudlarni tahlil qilganda uning quyidagi jihatlari o`rganiladi:

Asarning mavzusi-bunda asar nima haqida ekanligi aniqlanadi.

Asar g`oyasi-etyudda ilgari surilgan fikr.

Konflikt-etyuddagi voqeaga zid voqea va ularni kimlar keltirib chiqaradi.

Kompozitsion tuzilishi-asar prologi, tuguni, voqealar rivoji, kulminatsiya nuqtasi, yechimi va epilog aniqlanadi.

Oliy maqsadi-shu asarni sahnalashtirish orqali rejissor nima demoqchi ekanligi.

Obrazlarga xarakteristika-ishtirokchilarga qisqacha xarakteristika beriladi.

Keling, yig`ilgan ma`lumotlar va bilimlar asosida birgalikda etyud tahlilini amalga oshiramiz.

TOMOSHA

(ikki kishilik etyud)

Sahnada sirk maydoni tasvirlangan. Fondan tomoshabinlarning qarsaklari, qiy-chuvlarining ovozi eshitiladi.

1-bo`lak

Sahnaga sirk ishchisi chiqib keladi. Orqasiga og`ir qop ortib olgan. Sahna o`rtasiga keladi va qopni yerga qo`yadi. Og`zini ochib, ichidan nimadir oladi, qopning og`zini to`g`irlab ochib, o`zi qopning narigi tarafiga borib o`tirade.

2-bo`lak

Qo`lidagi 2 bo`lakdan iboratni nayni bir-biriga ulaydi va chalishga tayyorlaydi. Va sekin go`zal kuy yangraydi.

³ Stanislavskiy K.S. Aktyorning o`z ustida ishlashi. T.Xo`jayev tarjimai. “Toshkent” badiiy-adabiy nashriyoti. 1965-yil. B77

3-bo`lak

Qop ichidan ilon (ilon rolini ijro etuchi talaba) chiqib keladi. Dastlab ilon uyqudan uyg`onadi. Boshini chiqarib, atrofga qaraydi. To`lqinsimon harakatlar bilan tepaga qarab harakatlanib, tanasini tik ushlaydi.

4-bo`lak

Ilon xuddi kuyga mast bo`lgandek tovlanishda davom etadi.

5-bo`lak

Birdan sozandaning (sirkchining) nayidan sado chiqmay qoladi. Ilon birdan tovlanishdan to`xtaydi, egasiga qaraydi va kutilmaganda tashlanadi.

6-bo`lak

Sirkchi qaytdan nayni chalishda davom etadi. Ilon yana qaytdan gipnoz holatiga tushadi. Sekinlik bilan qopdan sudralib chiqadi-da, egasini o`ray boshlaydi.

7-bo`lak

Ilon egasini o`rashda davom etadi va birdan uni bo`g`adi.

8-bo`lak

Egasi ilonning bo`g`idan mahkam bo`g`adi va qopiga joylaydi.

9-bo`lak

Sirk tomoshachisi tomoshabinlarga ta`zim qilib, qopini ortgancha sahnadan chiqib ketadi.

Tamom.

Asarning mavzusi-Tomosha. Sirkda ko`rsatiladigan tomoshaning bir turi haqida.

Asar g`oyasi- "Ilonning ishi-zahar solmoq".

Konflikt-ilonning egasini bo`g`ishga intilishi.

Kompozitsion tuzilishi- etyud bosh, markaziy va yakuniy qismlardan iborat.

Oliy maqsad-Ehtiyotkorlik-davr talabi.

Obrazlarga xarakteristika- Ilon-makkor, sovuqqonli va xavfli hayvon.

Sirk tomoshachisi- sezgir va abjir.

Etyudning aktyor va rejissor ijodida o`rni juda katta. Hozir aksariyat spektakllarda, televideniya orqali uzatilayotgan film va seriallarda aktyorlarning rolni bachkana, ishonarsiz va mahoratsiz ijro etayotganiga tez-tez duch kelayapmiz. Aktyorlar ijrosi kundan-kunga "одноразовый" ga aylanib bormoqda. Bu holat tomoshabinni teatrdan, kinodan, umuman olganda, san`atdan bezdiradi. Bunday hollarni bartaraf etish uchun aktyorlar o`z rollarini etyudlarga bo`lib tahlil etishlari va ko`proq o`z ustilarida ishlashlari lozim. Aktyor faqat va faqatgina etyudlar orqali o`z texnikasi va mahoratini charxlashi, boyitishi mumkin. Tasavvur, fikrlash va fantaziyasiz aktyor "bo`sh quti" yoki "maryonetka"ga aylanadi. Diqqatni jamlash, tasavvurni kengaytirish, partnyorni sezish kabi odatlarni o`z ijodida mujassam etish uchun ham aktyor hech qachon etyud yaratishdan qo`rqmasligi va qochmasligi darkor. San`at-insonning ongiga fikr yo`llovchi sohada. Ijodkor insonning psixologiyasiga ta`sir ko`rsata oladigan shaxsdir. Bunday sharafli va ma`suliyatli kasbda juda ehtiyotkor bo`lmoq lozim.

Oskar Uayld bekorga aytmagan: "artist- yoki e`tiqodga xizmat qiluvchi, yoki masxaraboz(maynaboz) ".⁴

⁴ Stanislavskiy K.S. "Etika" Olimjon Salimov erkin tarjimasini. B.5

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. Toshkent. Bilim. 2005-yil. B.66.
2. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o`z ustida ishlashi. T.Xo`jayev tarjimai. "Toshkent" badiiy-adabiy nashriyoti. 1965-yil. B77.
3. Stanislavskiy K.S. "Etika" Olimjon Salimov erkin tarjimai. B.5.
4. uz.m.wiktionary.org.